Annotatsiya: Ushbu maqolada Markaziy Osiyoda hududiy integratsiya jarayonlari rivojlanishining zamonaviy holati va unga ta'sir etuvchi asosiy omillar tahlil qilingan. Tadqiqotda mintaqa davlatlari o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalar, transport-logistika infratuzilmasi, energetik hamkorlik, suv resurslaridan foydalanish, raqamli iqtisodiyot va tashqi geosiyosiy omillarning integratsion jarayonlarga ta'siri yoritilgan. Shuningdek, O'zbekistonning ochiq va pragmatik tashqi iqtisodiy siyosati Markaziy Osiyoda yangi mintaqaviy hamkorlik muhitini shakllantirishdagi muhim omil sifatida baholangan. Maqolada hududiy integratsiyani chuqurlashtirish uchun transport koridorlarini rivojlantirish, bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish, sanoat kooperatsiyasini kengaytirish va raqamli savdo mexanizmlarini takomillashtirish zarurligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Markaziy Osiyo, hududiy integratsiya, iqtisodiy hamkorlik, transport-logistika, savdo aloqalari, energetika, suv resurslari, raqamli iqtisodiyot, mintaqaviy hamkorlik.

Аннотация: В данной статье анализируются современное состояние развития процессов региональной интеграции в Центральной Азии и основные факторы, влияющие на эти процессы. В исследовании рассматриваются торгово-экономические связи между странами региона, транспортно-логистическая инфраструктура, энергетическое сотрудничество, использование водных ресурсов, цифровая экономика, а также влияние внешних геополитических факторов на интеграционные процессы. Особое внимание уделяется открытой и прагматичной внешнеэкономической политике Узбекистана, которая рассматривается как важный фактор формирования новой среды регионального сотрудничества в Центральной Азии. В статье обосновывается необходимость развития транспортных коридоров, упрощения таможенных процедур, расширения промышленной кооперации и совершенствования механизмов цифровой торговли для углубления региональной интеграции.

Ключевые слова: Центральная Азия, региональная интеграция, экономическое сотрудничество, транспорт и логистика, торговые связи, энергетика, водные ресурсы, цифровая экономика, региональное сотрудничество.

Abstract: This article analyzes the current state of regional integration processes in Central Asia and the main factors influencing their development. The study examines trade and economic relations among the countries of the region, transport and logistics infrastructure, energy cooperation, water resource management, the digital economy, and the impact of external geopolitical factors on integration processes. Particular attention is paid to Uzbekistan's open and pragmatic foreign economic policy, which is considered an important factor in shaping a new environment for regional cooperation in Central Asia. The article substantiates the need to develop transport corridors, simplify customs procedures, expand industrial cooperation, and improve digital trade mechanisms in order to deepen regional integration.

Keywords: Central Asia, regional integration, economic cooperation, transport and logistics, trade relations, energy, water resources, digital economy, regional cooperation.

KIRISH

Global iqtisodiy va geosiyosiy transformatsiyalar kuchayib borayotgan hozirgi davrda hududiy integratsiya jarayonlari jahon xo'jaligi rivojlanishining muhim omillaridan biriga aylanmoqda. Ayniqsa, savdo-iqtisodiy aloqalarning chuqurlashuvi, transport-logistika tizimlarining o'zaro bog'liqligi, energetik xavfsizlik, oziq-ovqat ta'minoti hamda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi mamlakatlar o'rtasidagi hududiy hamkorlikni yanada kuchaytirishni taqozo etmoqda. Shu nuqtayi nazardan Markaziy Osiyo mintaqasi ham global iqtisodiy tizimning muhim strategik hududlaridan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda.

So'nggi yillarda Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasida siyosiy ishonchning mustahkamlanishi, iqtisodiy aloqalarning faollashuvi va o'zaro manfaatli hamkorlik mexanizmlarining rivojlanishi hududiy integratsiya jarayonlariga yangi sur'at bag'ishlamoqda. Xususan, transport koridorlarini rivojlantirish, transchegaraviy savdoni kengaytirish, investitsion hamkorlikni kuchaytirish hamda suv-energetika resurslaridan samarali foydalanish bo'yicha olib borilayotgan tashabbuslar mintaqaviy integratsiyaning zamonaviy bosqichini shakllantirmoqda. Shu bilan birga, geosiyosiy raqobatning kuchayishi, global ta'minot zanjirlaridagi uzilishlar, ekologik muammolar va



xalqaro iqtisodiy beqarorlik hududiy integratsiya jarayonlariga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda.

Markaziy Osiyo davlatlari uchun hududiy integratsiya nafaqat iqtisodiy o'sishni jadallashtirish, balki mintaqaviy barqarorlikni ta'minlash, tranzit salohiyatini oshirish va xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshlikni kuchaytirishning muhim vositasi hisoblanadi. Ayniqsa, O'zbekiston tomonidan ochiq va pragmatik tashqi iqtisodiy siyosatning amalga oshirilishi mintaqada yangi integratsion muhit shakllanishiga xizmat qilmoqda. Natijada mintaqada davlatlari o'rtasidagi savdo aylanmasi, investitsion hamkorlik va infratuzilmaviy loyihalar hajmi sezilarli darajada ortib bormoqda.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, global iqtisodiy o'zgarishlar sharoitida Markaziy Osiyoda hududiy integratsiya jarayonlarining zamonaviy holatini ilmiy jihatdan tahlil qilish, unga ta'sir etuvchi iqtisodiy, siyosiy va institutsional omillarni aniqlash hamda mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish istiqbollari baholash muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Shu sababli mazkur tadqiqotda Markaziy Osiyoda hududiy integratsiya jarayonlarining rivojlanish tendensiyalari, ularning asosiy omillari hamda mintaqaviy iqtisodiy hamkorlikni takomillashtirish yo'nalishlari tahlil qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Markaziy Osiyoda hududiy integratsiya jarayonlarini o'rganishda B. Kaminski va S. Mitra tadqiqotlari muhim nazariy-amaliy ahamiyatga ega. Mualliflar mintaqada savdo aloqalarining shakllanishi, chegaraoldi bozorlarining iqtisodiy roli va transc chegaraviy hamkorlikning amaliy mexanizmlarini tahlil qilgan. Ularning yondashuvida Markaziy Osiyo integratsiyasi faqat davlatlararo kelishuvlar bilan emas, balki amaliy savdo oqimlari, kichik biznes subyektlari faolligi va chegaradosh hududlar o'rtasidagi iqtisodiy bog'liqlik orqali ham namoyon bo'lishi ta'kidlanadi. Bu jihat mintaqaviy integratsiyani pastdan yuqoriga shakllanuvchi iqtisodiy jarayon sifatida baholash imkonini beradi [1].

R.Sh. Mirzahatamov Markaziy Osiyo davlatlari tashqi siyosatida mintaqaviy hamkorlik masalalarini tahlil qilib, integratsiya jarayonlarining siyosiy-diplomatik asoslariga alohida e'tibor qaratadi. Muallifning fikricha, mintaqaviy hamkorlikning rivojlanishi davlatlar o'rtasidagi o'zaro ishonch, xavfsizlik, siyosiy muloqot va tashqi siyosiy manfaatlarning uyg'unlashuviga bevosita bog'liq. Ushbu yondashuv Markaziy Osiyoda iqtisodiy integratsiyaning samarali kechishi uchun avvalo siyosiy barqarorlik va diplomatik hamkorlik muhim shart ekanligini ko'rsatadi [2].

M.O. Sarikulov va I.I. Orifjonov O'zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan savdo aloqalari rivojlanishini o'rganib, mintaqaviy integratsiyada savdo-iqtisodiy munosabatlarning asosiy o'ringa ega ekanligini asoslaydi. Mualliflar O'zbekistonning qo'shni davlatlar bilan tashqi savdo hajmi, eksport-import tarkibi va iqtisodiy hamkorlik yo'nalishlarini tahlil qilish orqali savdo aloqalarining kengayishi mintaqaviy integratsiyani jadallashtiruvchi muhim omil ekanligini ko'rsatadi. Bu yondashuv O'zbekistonning ochiq iqtisodiy siyosati Markaziy Osiyo hududiy integratsiyasida faol harakatlantiruvchi kuchga aylanayotganini anglashga yordam beradi [3].

N.I. Meliyev Markaziy Osiyo transport tizimini rivojlantirish siyosatida O'zbekiston tashabbuslarini tahlil qilib, transport-logistika infratuzilmasini integratsion jarayonlarning asosiy strategik yo'nalishlaridan biri sifatida baholaydi. Tadqiqotda xalqaro transport koridorlari, tranzit yo'nalishlari va mintaqaviy bog'liqlikni kuchaytiruvchi infratuzilmaviy loyihalarning iqtisodiy ahamiyati yoritiladi. Muallifning yondashuvi shuni ko'rsatadiki, Markaziy Osiyo davlatlarining dengiz portlariga bevosita chiqish imkoniyati cheklangan sharoitda transport tarmoqlarini rivojlantirish integratsiyaning amaliy samaradorligini belgilovchi muhim omil hisoblanadi [4].

Jahon banki tomonidan tayyorlangan "Trade Expansion through Market Connection" nomli tadqiqotda Markaziy Osiyo bozorlarining o'zaro bog'lanishi, savdo aloqalarining kengayishi va mintaqaviy bozor infratuzilmasining rivojlanish imkoniyatlari tahlil qilingan. Ushbu manbada Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston misolida ichki hamda transc chegaraviy bozorlar o'rtasidagi aloqalar savdo integratsiyasining muhim elementi sifatida ko'rib chiqiladi. Mazkur yondashuv mintaqaviy integratsiya jarayonlarida yirik makroiqtisodiy kelishuvlar bilan bir qatorda, mahalliy bozorlar va real savdo almashinuvi ham muhim o'rin tutishini ko'rsatadi [5].

OECD/ITF tomonidan tayyorlangan hisobotda Markaziy Osiyoda transport va yuk tashish aloqalarini kuchaytirish masalalari chuqur tahlil qilingan. Hisobotda mintaqaning xalqaro savdo tizimiga samarali qo'shilishi uchun transport xarajatlarini kamaytirish, logistika xizmatlari sifatini oshirish va tranzit yo'laklarini modernizatsiya qilish zarurligi ko'rsatiladi. Ushbu manba Markaziy Osiyo integratsiyasining faqat savdo siyosati bilan emas, balki infratuzilmaviy ulanish darajasi bilan ham chambarchas bog'liq ekanligini asoslashda muhim ahamiyatga ega [6].

Yevroosiyo taraqqiyot bankining "The Economy of Central Asia: A Fresh Perspective" nomli hisobotida Markaziy Osiyo iqtisodiyotining umumiy salohiyati, demografik imkoniyatlari, resurs bazasi va mintaqaviy hamkorlik istiqbollari keng yoritilgan. Hisobotda mintaqada davlatlarining iqtisodiy o'sishi, investitsion imkoniyatlari, ichki bozor hajmi va tashqi iqtisodiy aloqalari integratsiya jarayonlari uchun muhim poydevor sifatida ko'rsatiladi. Ushbu manba Markaziy Osiyoni alohida davlatlar majmui sifatida emas, balki yagona geoiqtisodiy makon sifatida o'rganishga imkon beradi [7].

Osiyo taraqqiyot bankingning CAREC 2030 strategiyasida Markaziy va G'arbiy Osiyo davlatlari o'rtasida barqaror rivojlanish, iqtisodiy bog'liqlik va infratuzilmaviy integratsiyani kuchaytirish masalalari belgilangan. Mazkur strategiyada transport, energetika, savdo, iqtisodiy koridorlar va institutsional hamkorlik integratsiyaning asosiy yo'nalishlari sifatida ko'rsatiladi. Bu hujjat Markaziy Osiyo mintaqasida ko'p tomonlama hamkorlikni rivojlantirishda xalqaro moliya institutlari va mintaqaviy dasturlarning ahamiyatini ochib beradi [8].

N. Yoshino, B. Huang, D. Azhgaliyeva va Q. Abbas tahriri ostida tayyorlangan ilmiy to'plamda Markaziy Osiyoda infratuzilmani rivojlantirish, uni moliyalashtirish mexanizmlari va iqtisodiy ta'siri tahlil qilingan. Mualliflar infratuzilma loyihalarini iqtisodiy o'sish, hududiy bog'liqlik va investitsion faollikni oshiruvchi muhim omil sifatida baholaydi. Ushbu yondashuv mintaqaviy integratsiyaning uzoq muddatli samaradorligi transport, energetika va raqamli infratuzilma kabi sohalarga yo'naltirilgan investitsiyalar bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatadi [9].

CAREC Institute tomonidan tayyorlangan "Corridor Performance Measurement and Monitoring Annual Report 2023" hisobotida mintaqadagi transport koridorlarining samaradorligi, yuk tashish tezligi, chegaradan o'tish jarayonlari va logistika xarajatlari kabi ko'rsatkichlar tahlil qilinadi. Ushbu manba Markaziy Osiyoda integratsiya jarayonlarining amaliy natijalarini o'lchashda muhim statistik va tahliliy asos bo'lib xizmat qiladi. Hisobotda transport koridorlari faoliyatining monitoringi orqali mintaqaviy savdo samaradorligini oshirish yo'llari ko'rsatiladi [10].

Osiyo taraqqiyot bankingning "Asian Economic Integration Report 2024" hisobotida Osiyo mintaqasida iqtisodiy integratsiya, global qiymat zanjirlari va dekarbonizatsiya jarayonlari tahlil qilingan. Ushbu manba Markaziy Osiyo integratsiyasini kengroq Osiyo iqtisodiy makoni bilan bog'liq holda baholash imkonini beradi. Hisobotda global qiymat zanjirlarining qayta shakllanishi, yashil iqtisodiyot va barqaror ishlab chiqarish tizimlari kelajakdagi integratsiya jarayonlarining muhim yo'nalishlari sifatida ko'rsatiladi [11].

Umuman olganda, tahlil qilingan adabiyotlar Markaziy Osiyoda hududiy integratsiya jarayonlari ko'p qirrali va o'zaro bog'liq omillar ta'sirida rivojlanayotganini ko'rsatadi. Mahalliy olimlar asosan O'zbekistonning mintaqaviy hamkorlik, savdo aloqalari va transport tashabbuslaridagi rolga e'tibor qaratgan bo'lsa, xalqaro tashkilotlar hisobotlarida savdo, logistika, infratuzilma, iqtisodiy koridorlar va barqaror rivojlanish masalalari keng tahlil qilingan. Shu bois Markaziy Osiyoda integratsiyani chuqurlashtirish uchun siyosiy muloqot, savdo-iqtisodiy hamkorlik, transport bog'liqligi, infratuzilmaviy modernizatsiya va raqamli iqtisodiyot omillarini kompleks tarzda rivojlantirish zarur.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda Markaziy Osiyo mamlakatlarida hududiy integratsiya jarayonlarining zamonaviy holatini o'rganish maqsadida xalqaro tashkilotlar va milliy statistik manbalarning rasmiy ma'lumotlaridan foydalanildi. Jumladan, Jahon banki, Xalqaro valuta jamg'armasi, BMT, Yevroosiyo taraqqiyot banki, JST hamda Markaziy Osiyo davlatlari statistika qo'mitalari tomonidan e'lon qilingan savdo aylanmasi, investitsiyalar, transport-logistika ko'rsatkichlari va iqtisodiy hamkorlikka oid ma'lumotlar tahlil qilindi. Tadqiqot davomida ilmiy maqolalar, analitik hisobotlar va normativ-huquqiy hujjatlar asosida hududiy integratsiyaning nazariy hamda amaliy jihatlari o'rganildi. Olingan ma'lumotlarni tahlil qilishda qiyosiy tahlil, dinamik tahlil, statistik guruhlash, tizimli yondashuv va mantiqiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Shuningdek, mintaqa mamlakatlari o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar rivojlanish tendensiyalarini aniqlash orqali hududiy integratsiyaga ta'sir etuvchi asosiy omillar baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Markaziy Osiyo mintaqasi tarixan Buyuk ipak yo'lining markaziy hududlaridan biri sifatida Sharq va G'arb o'rtasidagi iqtisodiy, madaniy hamda savdo aloqalarining muhim bo'g'ini hisoblangan. Hozirgi global iqtisodiy transformatsiyalar sharoitida ushbu hududning geoiqtisodiy va geosiyosiy ahamiyati yanada ortib bormoqda. Ayniqsa, xalqaro savdo yo'nalishlarining qayta shakllanishi, transport-logistika tizimlarining diversifikatsiyalashuvi va yangi tranzit koridorlarining paydo bo'lishi Markaziy Osiyoda hududiy integratsiya jarayonlarini jadallashtirmoqda. Shu jihatdan hududiy integratsiya mintaqa mamlakatlari iqtisodiy barqarorligini ta'minlash, investitsion jozibadorlikni oshirish va xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshlikni kuchaytirishda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

So'nggi yillarda Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi siyosiy munosabatlarning yaxshilanishi mintaqaviy integratsiya rivojlanishiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Ayniqsa, O'zbekiston tomonidan ochiq tashqi siyosatning amalga oshirilishi va qo'shni davlatlar bilan o'zaro manfaatli hamkorlikka ustuvor ahamiyat berilishi mintaqadagi iqtisodiy aloqalarning faollashuviga xizmat qildi. Natijada mintaqa mamlakatlari o'rtasidagi savdo hajmi, investitsiyalar oqimi va transport qatnovlari sezilarli darajada oshdi. Bu esa hududiy integratsiyaning amaliy mexanizmlarini shakllantirishga zamin yaratmoqda.



Markaziy Osiyoda integratsiya jarayonlarining rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillardan biri geografik yaqinlik va iqtisodiy manfaatlarining o'zaro uyg'unligidir. Mintaqa davlatlari umumiy tarixiy, madaniy va iqtisodiy aloqalarga ega bo'lib, ularning iqtisodiy tizimlari ko'plab yo'nalishlarda bir-birini to'ldiradi. Masalan, Qozog'iston katta energetik va xomashyo salohiyatiga ega bo'lsa, O'zbekiston sanoat va demografik resurslari bilan ajralib turadi. Qirg'iziston va Tojikiston gidroenergetika imkoniyatlariga ega bo'lib, Turkmaniston tabiiy gaz resurslari bo'yicha mintaqaning muhim davlatlaridan biri hisoblanadi. Ushbu resurslarning o'zaro uyg'unligi hududiy iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish uchun muhim iqtisodiy asos yaratadi.

Mintaqaviy integratsiya rivojlanishida transport-logistika infratuzilmasining ahamiyati ham yuqori hisoblanadi. Markaziy Osiyo davlatlari dengiz portlariga to'g'ridan to'g'ri chiqish imkoniyatiga ega emasligi sababli transport xarajatlari nisbatan yuqori bo'lib qolmoqda. Shu sababli xalqaro tranzit koridorlarini rivojlantirish va transport aloqalarini diversifikatsiyalash mintaqa davlatlari uchun strategik ahamiyat kasb etadi. Xususan, "Xitoy - Markaziy Osiyo - Yevropa" transport yo'nalishi, Transkaspiy xalqaro transport koridori va "Shimol - Janub" yo'lga mintaqa iqtisodiyotining xalqaro bozorlarga integratsiyalashuvini kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Mazkur koridorlar orqali yuk tashish hajmining oshishi eksport-import operatsiyalarining samaradorligini kuchaytirib, mintaqaning tranzit salohiyatini oshirmoqda (1-jadval).

1-jadval

Markaziy Osiyo mamlakatlarida hududiy integratsiya jarayonlariga ta'sir etuvchi asosiy omillar tavsifi¹

| Omillar | Mazmuni | Integratsiyaga ta'siri |
|---------------------------------|---|---|
| Geografik yaqinlik | Mamlakatlarning o'zaro chegaradosh joylashuvi | Savdo, logistika va transport xarajatlarini kamaytiradi |
| Transport-logistika koridorlari | Xalqaro tranzit yo'laklari va temiryo'l tarmoqlari rivojlanishi | Eksport-import hajmini oshiradi va tranzit salohiyatini kuchaytiradi |
| Energetik resurslar | Neft, gaz va gidroenergetika salohiyati | Energetik hamkorlikni rivojlantiradi |
| Suv resurslari | Transchegaraviy daryolar va suv taqsimoti tizimi | Qishloq xo'jaligi va energetika tizimlarining o'zaro bog'liqligini kuchaytiradi |
| Savdo-iqtisodiy hamkorlik | O'zaro savdo hajmi va investitsion aloqalar | Mintaqaviy iqtisodiy integratsiyani jadallashtiradi |
| Raqamli iqtisodiyot | Elektron bojxona, elektron savdo va raqamli xizmatlar | Savdo operatsiyalarini soddalashtiradi |
| Geosiyosiy omillar | Xalqaro tashabbuslar va tashqi iqtisodiy manfaatlar | Yangi investitsiya va tranzit imkoniyatlarini yaratadi |
| Siyosiy barqarorlik | Davlatlararo ishonch va diplomatik aloqalar | Uzoq muddatli hamkorlikni mustahkamlaydi |

Jadval ma'lumotlari Markaziy Osiyoda hududiy integratsiya jarayonlari ko'p omilli tizim asosida rivojlanayotganligini ko'rsatadi. Ayniqsa, geografik yaqinlik va transport-logistika infratuzilmasi mintaqaviy iqtisodiy hamkorlikning asosiy drayverlari sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bilan birga, energetik va suv resurslarining o'zaro bog'liqligi davlatlar o'rtasidagi strategik hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi esa bojxona va savdo jarayonlarini tezlashtirib, integratsiyaning zamonaviy mexanizmlarini shakllantirmoqda. Jadvaldagi omillar tahlili shuni ko'rsatadiki, siyosiy barqarorlik va tashqi iqtisodiy tashabbuslar bilan uyg'unlashgan holda mintaqaviy integratsiya Markaziy Osiyo mamlakatlarining xalqaro iqtisodiy tizimdagi raqobatbardoshligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hududiy integratsiya jarayonlarining rivojlanishida tashqi iqtisodiy hamkorlik ham muhim o'rin tutadi. So'nggi yillarda Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi savdo aylanmasining o'sishi integratsiya jarayonlarining iqtisodiy natijadorligini ko'rsatmoqda. Ayniqsa, sanoat kooperatsiyasi, qo'shma investitsion loyihalar va transchegaraviy savdo zonalarining rivojlanishi mintaqaviy iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi sanoat kooperatsiyasi, O'zbekiston va Qirg'iziston o'rtasidagi chegaraoldi savdo markazlari hamda energetika sohasidagi qo'shma loyihalar integratsion jarayonlarning amaliy ko'rinishlaridan biri hisoblanadi.

Markaziy Osiyoda hududiy integratsiya rivojlanishiga ta'sir etayotgan muhim omillardan biri suv-energetika resurslari bilan bog'liq hamkorlik hisoblanadi. Mintaqa davlatlari tabiiy resurslar taqsimoti jihatidan o'zaro chambarchas bog'langan bo'lib, bu holat iqtisodiy manfaatlarining uyg'unlashuviga xizmat qilmoqda. Jumladan, Qirg'iziston va Tojikiston gidroenergetika salohiyati bilan ajralib tursa, O'zbekiston, Qozog'iston va Turkmaniston energetik resurslar hamda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida muhim o'rin egallaydi. Shu sababli suv va energetika

1 Manba: muallif ishlanmasi.

resurslaridan samarali foydalanish masalasi nafaqat iqtisodiy rivojlanish, balki mintaqaviy barqarorlikni ta'minlash nuqtayi nazaridan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. So'nggi yillarda suv resurslarini boshqarish, elektr energiyasi almashinuvi va energetik xavfsizlikni mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan muloqotlarning faollashuvi integratsion munosabatlarning yangi bosqichga ko'tarilayotganligini ko'rsatmoqda.

Bundan tashqari, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi ham hududiy integratsiyaning zamonaviy yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda.

Birinchidan, elektron savdo platformalarining kengayishi mintaqa davlatlari o'rtasidagi savdo aloqalarini tezlashtirmoqda.

Ikkinchidan, raqamli bojxona tizimlari va elektron hujjat almashinuvi transchegaraviy operatsiyalarni soddalashtirib, ortiqcha vaqt va xarajatlarni kamaytirishga xizmat qilmoqda.

Uchinchidan, logistika tizimlarining avtomatlashtirilishi yuk tashish jarayonlarining samaradorligini oshirib, mintaqaning tranzit salohiyatini kuchaytirmoqda. Natijada biznes subyektlari uchun yanada qulay investitsion va savdo muhiti shakllanib, iqtisodiy faollikning ortishi kuzatilmoqda.

Hududiy integratsiya jarayonlariga global geosiyosiy omillar ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, xalqaro iqtisodiy beqarorlik, jahon ta'minot zanjirlaridagi uzilishlar va geosiyosiy raqobatning kuchayishi Markaziy Osiyo davlatlarini yangi iqtisodiy hamkorlik yo'nalishlarini izlashga undamoqda. Shu bilan birga, mintaqaning geostrategik joylashuvi yirik xalqaro iqtisodiy tashabbuslarning ushbu hududga bo'lgan qiziqishini oshirmoqda. Jumladan, Xitoyning "Bir makon, bir yo'l" tashabbusi, Yevropa Ittifoqining Global Gateway strategiyasi hamda Janubiy Osiyo bozorlariga chiqish imkoniyatlari Markaziy Osiyo davlatlari uchun yangi iqtisodiy istiqbollarni yuzaga keltirmoqda. Bu esa mintaqaning xalqaro tranzit va savdo tizimidagi strategik ahamiyatini yanada kuchaytirmoqda.

Shu bilan birga, hududiy integratsiya rivojlanishiga ta'sir etayotgan ayrim cheklovlar ham mavjud. Avvalo, transport-logistika infratuzilmasining barcha hududlarda bir xil darajada rivojlanmaganligi iqtisodiy aloqalar samaradorligiga ta'sir ko'rsatmoqda. Bundan tashqari, bojxona tartib-taomillari va texnik standartlardagi ayrim tafovutlar savdo operatsiyalarining murakkablashishiga sabab bo'lmoqda. Ayrim hollarda suv resurslaridan foydalanish bilan bog'liq masalalar hamda geosiyosiy manfaatlarining kesishishi integratsion jarayonlarning rivojlanishiga ma'lum darajada ta'sir etmoqda. Biroq keyingi yillarda davlatlar o'rtasida konstruktiv muloqotning kuchayishi, o'zaro ishonchning ortishi va pragmatik hamkorlik tamoyillarining shakllanishi ushbu muammolarni bosqichma-bosqich hal etish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Mintaqada hududiy integratsiyani yanada chuqurlashtirish uchun iqtisodiy siyosatlarni muvofiqlashtirish, transport va logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish hamda bojxona tizimlarini raqamlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish, qo'shma investitsion loyihalarni amalga oshirish va innovatsion texnologiyalar almashinuvi kuchaytirish mintaqa iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, yashil iqtisodiyot, qayta tiklanuvchi energiya manbalari va ekologik barqarorlik yo'nalishlarida hamkorlikni kengaytirish global ekologik muammolar sharoitida Markaziy Osiyo davlatlari uchun strategik ahamiyat kasb etmoqda.

Umuman olganda, Markaziy Osiyoda hududiy integratsiya jarayonlari so'nggi yillarda yangi bosqichga ko'tarilib, iqtisodiy hamkorlikning muhim yo'nalishiga aylanmoqda. Mintaqaning geostrategik joylashuvi, tabiiy resurslari, tranzit salohiyati va demografik imkoniyatlari integratsion jarayonlarning rivojlanishi uchun muhim asos bo'lib xizmat qilmoqda. Global iqtisodiy o'zgarishlar sharoitida Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi hamkorlikni yanada chuqurlashtirish mintaqaning xalqaro iqtisodiy tizimdagi o'rnini mustahkamlash va barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, global iqtisodiy o'zgarishlar sharoitida Markaziy Osiyoda hududiy integratsiya jarayonlari yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Mintaqa davlatlari o'rtasidagi siyosiy muloqotning faollashuvi, savdo-iqtisodiy aloqalarning kengayishi, transport-logistika infratuzilmasining rivojlanishi va o'zaro investitsion hamkorlikning ortishi integratsion jarayonlarning mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, mintaqaning geostrategik joylashuvi, tranzit salohiyati hamda tabiiy resurslarga boyligi Markaziy Osiyoning xalqaro iqtisodiy tizimdagi ahamiyatini yanada oshirmoqda.

Tahlillar hududiy integratsiyaning rivojlanishiga transport-kommunikatsiya tizimlari, energetik va suv resurslari hamkorligi, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi hamda tashqi iqtisodiy tashabbuslar muhim ta'sir ko'rsatayotganligini ko'rsatdi. Shu bilan birga, ayrim institutsional va infratuzilmaviy cheklovlar integratsiya jarayonlarining samaradorligiga ma'lum darajada ta'sir qilmoqda. Biroq mintaqa davlatlari o'rtasidagi o'zaro ishonchning ortib borishi va pragmatik iqtisodiy siyosatning shakllanishi mavjud imkoniyatlardan yanada samarali foydalanish uchun qulay sharoit yaratmoqda.

Hududiy integratsiya jarayonlarini yanada rivojlantirish maqsadida quyidagi takliflarni amalga oshirish



maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- mintaqa davlatlari o'rtasida transport va logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish hamda xalqaro tranzit koridorlari samaradorligini oshirish;
- bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish va raqamli bojxona tizimlarini keng joriy etish orqali savdo operatsiyalarini tezlashtirish;
- sanoat kooperatsiyasini kengaytirish, qo'shma investitsion loyihalarni ko'paytirish va erkin iqtisodiy hamkorlik mexanizmlarini rivojlantirish;
- suv va energetika resurslaridan samarali foydalanish bo'yicha uzoq muddatli mintaqaviy hamkorlik dasturlarini ishlab chiqish;
- elektron savdo, raqamli logistika va innovatsion texnologiyalar asosida raqamli iqtisodiyot integratsiyasini kuchaytirish;
- yashil iqtisodiyot va ekologik barqarorlik yo'nalishlarida qo'shma mintaqaviy dasturlarni amalga oshirish;
- Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi institutsional hamkorlikni mustahkamlash va muntazam iqtisodiy muloqot platformalarini rivojlantirish.

Umuman olganda, Markaziy Osiyoda hududiy integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirish mintaqa davlatlarining iqtisodiy o'sishi, investitsion jozibadorligi va xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Shu sababli mintaqaviy hamkorlikni tizimli ravishda rivojlantirish va integratsiyaning institutsional asoslarini mustahkamlash kelgusida barqaror iqtisodiy taraqqiyotga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. B. Kaminski, S. Mitra. Borderless Bazaars and Regional Integration in Central Asia: Emerging Patterns of Trade and Cross-Border Cooperation. – Washington, D.C.: World Bank, 2012. – 188 p.
2. R.Sh. Mirzahatamov MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI TASHQI SIYOSATIDA MINTAQAVIY HAMKORLIK // OJHPL. 2022. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/markaziy-osiyo-davlatlari-tashqi-siyosatida-mintaqaviy-hamkorlik> (дата обращения: 23.05.2026).
3. Sarikulov M.O., Orifjonov I.I. O'ZBEKISTONNING MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARI BILAN SAVDO ALOQALARINING RIVOJLANISHI // Экономика и социум. 2025. №7-1 (134). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbekistonning-markaziy-osiyo-mamlakatlari-bilan-savdo-aloqalarining-rivojlanishi> (дата обращения: 23.05.2026).
4. Meliyev, No'monxon Ibodulla O'g'li MARKAZIY OSIYO TRANSPORT TIZIMINI RIVOJLANTIRISH SIYOSATIDA O'ZBEKISTON TASHABBUSLARI // ORIENSS. 2025. №6. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/markaziy-osiyo-transport-tizimini-rivojlantirish-siyosatida-o-zbekiston-tashabbuslari> (дата обращения: 23.05.2026).
5. World Bank. Trade Expansion through Market Connection: The Central Asian Markets of Kazakhstan, Kyrgyz Republic, and Tajikistan. – Washington, D.C.: World Bank, 2011. – 96 p.
6. OECD/ITF. Enhancing Connectivity and Freight in Central Asia. – Paris: OECD Publishing, 2019. – 136 p.
7. Eurasian Development Bank. The Economy of Central Asia: A Fresh Perspective. – Almaty: Eurasian Development Bank, 2022. – 96 p.
8. Asian Development Bank. CAREC 2030: Connecting the Region for Shared and Sustainable Development. – Manila: Asian Development Bank, 2017. – 60 p.
9. N. Yoshino, B. Huang, D. Azhgaliyeva, Q. Abbas (eds.). Developing Infrastructure in Central Asia: Impacts and Financing Mechanisms. – Tokyo: Asian Development Bank Institute, 2021. – 273 p.
10. CAREC Institute. Corridor Performance Measurement and Monitoring Annual Report 2023. – Urumqi: CAREC Institute, 2023. – 86 p.
11. Asian Development Bank. Asian Economic Integration Report 2024: Decarbonizing Global Value Chains. – Manila: Asian Development Bank, 2024. – 244 p.

muhandislik **& iqtisodiyot**

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. May. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100